


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel)


Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oyida chakana savdo tovar aylanmasi 3 447,0 mlrd.so`mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 % ga pasaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 375,0 mlrd.so`mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 %), Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 072,0 mlrd.so`mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 %) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 345,4 mlrd.so`mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,1 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish va pasayishi sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uychi va Chust tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi



Shahar va tumanlar kesmida chakana savdo tovar aylanmasi


	Mln.so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	3 447 012,5	90,3
Namangan.sh	1 687 881,2	94,5
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	59 119,2	78,7
Kosonsoy	176 091,0	82,4
Namangan	100 306,9	85,9
Norin	235 570,0	91,6
Pop	196 280,3	78,8
To`raqo`rg`on	163 582,5	80,7
Uychi	142 159,8	111,0
Uchqo`rg`on	121 231,5	68,7
Chortoq	134 686,2	84,6
Chust	275 679,9	101,3
Yangiqo`rg`on	154 424,0	85,2

Chakana savdo tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish Uychi – 111,0 % ni va Chust – 101,3 % ni tumanlarda tashkil etdi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	374 992,3	93,8	3 072 020,1	89,9
Namangan.sh	121 017,9	75,6	1 566 863,2	96,4
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	1 417,1	5,6 m.	57 702,2	77,1
Kosonsoy	2 014,6	3,6 m.	174 076,4	81,7
Namangan	4 100,0	3,8 m.	96 207,0	83,1
Norin	12 066,7	173,5	223 503,3	89,3
Pop	14 908,7	55,7	181 371,7	81,6
To`raqo`rg`on	11 103,5	43,7	152 479,0	86,0
Uychi	29 942,8	84,4 m.	112 216,9	87,9
Uchqo`rg`on	9 192,1	21,6	112 039,4	83,7
Chortoq	29 340,2	90,1	105 346,0	83,1
Chust	135 029,4	133,8	140 650,5	82,2
Yangiqo`rg`on	4 859,4	194,3	149 564,6	83,7

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-aprel oyilarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatning barcha hududlarida pasayish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Namangan shahri (2 689,4 ming so'm), Norin (1 439,9 ming so'm) va Chust (1 039,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mingbuloq (469,2 ming so'm), Namangan (560,4 ming so'm), Uychi (668,4 ming so'm) va Chortoq (677,5 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1229,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,6 % ga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1 223,9	88,4
Namangan.sh	2 689,4	92,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	469,2	77,1
Kosonsoy	842,9	80,6
Namangan	560,4	84,0
Norin	1 439,9	89,8
Pop	895,0	77,4
To`raqo`rg`on	724,5	79,0
Uychi	668,4	108,6
Uchqo`rg`on	705,7	67,3
Chortoq	677,5	82,9
Chust	1 039,1	99,4
Yangiqo`rg`on	709,7	83,5

2020-yilning yanvar-aprel oyilarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,3 % ni tashkil etib, 44,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan 26,7 % ga kamaygan. Bunda jami savdo aylanmasining 91,1 % ulushi k ichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 860,3 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 25,5 foizga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra 566,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,5 % ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,8 % ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes subektlari (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	860 310,0	74,5	294 126,6	70,9	566 183,5	76,5
Namangan.sh	319 962,3	81,3	99 099,9	93,3	220 862,5	76,9
tumanlar:						
Mingbuloq	8 478,5	73,2	44,8	34,4	8 433,7	73,6
Kosonsoy	83 753,0	75,6	10,7	9,8	83 742,3	75,6
Namangan	30 412,8	76,3	293,0	124,2	30 119,8	76,0
Norin	43 110,7	96,7	8 815,0	1951,9 m.	34 295,7	76,9
Pop	36 163,1	77,7	125,9	94,9	36 037,2	77,7
To'raqo'rg'on	69 812,6	31,2	31 841,7	18,4	37 970,9	75,3
Uychi	30 254,0	131,0	16 058,0	440,2	14 196,0	73,0
Uchqo'rg'on	20 607,5	212,4	13 481,3	108,5m.	7 126,2	74,4
Chortoq	41 323,7	77,0	4 403,8	75,5	36 919,9	77,2
Chust	129 661,2	94,2	119 952,4	96,0	9 708,8	76,6
Yangiqo'rg'on	46 770,6	77,0	-	-	46 770,6	77,0

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan Uchqo`rg`on – 212,4 % Uychi – 131,0 % tumanlarda ko`paydi. To`raqorg`on – 31,2 % Mingbuloq – 73,2 % tumanlarda kamaydi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:(69) – 226 – 84 – 95**